

Toshtemirov Farhod Shodiyevich

Turon universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada internet muloqot tilining lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Internet kommunikatsiyasida yuzaga kelgan yangi til shakllari, xususan, qisqartmalar, yangi leksik birliklar, emotikonlar va normativ til qoidalaridan chetga chiqish hodisalari o'rganiladi. Tadqiqotda internet tilining fonetik, grammatik, leksik va grafika jihatlaridagi o'zgarishlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Natijada internet tilining zamonaviy kommunikatsiya jarayonidagi o'rni va uning ijtimoiy-lingvistik xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: internet kommunikatsiyasi, kommunikativ til, emotikon, qisqartma, lingvistik o'zgarish, internet tili.

Annotation. This article analyzes the linguistic features of the language of Internet communication. New language forms that have emerged in Internet communication, in particular, abbreviations, new lexical units, emoticons, and deviations from normative language rules, are studied. The study analyzes changes in the phonetic, grammatical, lexical, and graphic aspects of Internet language based on scientific sources. As a result, the role of Internet language in the modern communication process and its sociolinguistic features are highlighted.

Keywords: Internet communication, communicative language, emoticon, abbreviation, linguistic change, Internet language.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвистические особенности языка интернет-коммуникации. Изучаются новые языковые формы, возникшие в интернет-коммуникации, в частности, сокращения, новые лексические единицы, смайлики и отклонения от нормативных языковых правил. В исследовании анализируются изменения фонетических, грамматических, лексических и графических аспектов интернет-языка на основе научных источников. В результате освещается роль интернет-языка в современном коммуникационном процессе и его социолингвистические особенности.

Ключевые слова: интернет-коммуникация, коммуникативный язык, смайлик, сокращение, лингвистические изменения, интернет-язык.

XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi insonlar o'rtasidagi kommunikatsiya jarayonini tubdan o'zgartirdi. Internet va mobil texnologiyalar inson hayotining ajralmas qismiga aylanib, yangi til shakllari va kommunikativ usullarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, smartfonlarning keng tarqalishi muloqot jarayonida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqardi.

Tilshunoslikda internet kommunikatsiyasi yangi kommunikativ makon sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, internet muhitida yuzaga kelgan

kommunikatsiya shakllari an'anaviy og'zaki va yozma nutq o'rtasidagi chegaralarni ma'lum darajada yo'qotib, ularning xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan yangi kommunikativ modelni yuzaga keltirdi¹. Devid Kristal internet tilini zamonaviy til rivojining yangi bosqichi sifatida baholab, uning paydo bo'lishi til tizimining tabiiy evolyutsiyasi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

Internet kommunikatsiyasining rivojlanishida mobil texnologiyalar, ayniqsa smartfonlarning keng tarqalishi muhim rol o'ynadi. Smartfonlar yordamida foydalanuvchilar internetga doimiy ulanish imkoniyatiga ega bo'lib, turli ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va onlayn platformalar orqali tezkor axborot almashish imkoniyatini qo'lga kiritdilar. Manuel Kastellsning ta'kidlashicha, zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalarining rivojlanishi "tarmoq jamiyati" (network society) shakllanishiga olib kelib, kommunikatsiya jarayonini global miqyosda yangi bosqichga olib chiqdi².

Internet kommunikatsiyasining keng tarqalishi til tizimida ham yangi lingvistik hodisalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Masalan, qisqartmalar, yangi slang birliklar, emotikonlar, grafika belgilar va turli multimodal kommunikatsiya vositalari internet tilining asosiy komponentlariga aylandi. Susan Herring internet kommunikatsiyasini o'rganar ekan, onlayn muloqot shakllari ko'pincha yozma nutq shaklida amalga oshirilsa-da, ular og'zaki nutqqa xos spontaneitet, qisqalik va emotsionallik xususiyatlarini ham o'zida mujassamlashtirishini ta'kidlaydi³.

Bundan tashqari, internet kommunikatsiyasi jarayonida tilning yangi funksional shakllari shakllanmoqda. Internet foydalanuvchilari tezkor muloqot qilish ehtiyoji tufayli til birliklarini qisqartirish, yangi semantik ma'nolar yaratish yoki grafika vositalaridan foydalanish orqali kommunikatsiyani yanada samarali qilishga harakat qiladilar. Bu jarayon tilning dinamik rivojlanishini aks ettirib, zamonaviy tilshunoslikda yangi tadqiqot yo'nalishlari – internet lingvistikasi va kompyuter vositasida amalga oshiriladigan kommunikatsiya tadqiqotlarining shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

Shu sababli internet va mobil texnologiyalar nafaqat kommunikatsiya vositalarini o'zgartirdi, balki til tizimining rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Natijada zamonaviy kommunikativ muhitda tilning yangi shakllari paydo bo'lib, ular global axborot jamiyatining muhim lingvistik xususiyatlaridan biriga aylanmoqda.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, zamonaviy jamiyatda internetdan foydalanish kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ayniqsa smartfonlar muloqot usullarida haqiqiy kommunikativ inqilobni yuzaga keltirdi⁴.

Internet muhitida yuzaga kelgan kommunikatsiya jarayonida so'zlarning qisqarishi, yangi slang birliklarning paydo bo'lishi, emotikonlar orqali his-tuyg'ularni ifodalash kabi hodisalar keng tarqalgan. Bu jarayon til tizimining rivojlanishi bilan birga uning normativ shakliga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

¹ Crystal D., *Language and the Internet*, 2006, 24-bet

² Castells M., *The Rise of the Network Society*, 2010, 77-bet

³ Herring S., *Computer-Mediated Communication*, 2001, 612-bet

⁴ Kim Jin, *Internet Communication Language Linguistic Characteristics*, 2015, 1-bet

Internet kommunikatsiyasi real hayotdagi muloqotdan farqli ravishda virtual muhitda amalga oshadi. Bu muhitning asosiy xususiyatlari tezkorlik, anonimlik va interaktivlikdan iborat. Internet orqali axborot almashinuvi juda tez sodir bo'lib, foydalanuvchilar vaqt va makon cheklovlarisiz muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Internet muhitining yana bir muhim xususiyati anonimlikdir. Internetda foydalanuvchilar o'z shaxsini yashirgan holda muloqot qilishlari mumkin. Bu esa kommunikatsiya jarayonida erkinlikni kuchaytiradi va yangi til birliklarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi⁵.

Internet muloqot tilida yangi leksik birliklarning paydo bo'lishi eng muhim lingvistik hodisalardan biridir. Bu birliklar ko'pincha so'zlarni qisqartirish, yangi ma'no yuklash yoki yangi so'z yasash orqali yuzaga keladi.

Internet tilida qisqartmalar keng qo'llaniladi. Masalan, so'zlarning bosh bo'g'inlarini birlashtirish yoki ayrim bo'g'inlarni tushirib qoldirish orqali yangi so'zlar hosil qilinadi. Bunday qisqartmalar muloqotni tezlashtirish va matn hajmini qisqartirish maqsadida qo'llaniladi⁶.

Tilshunos Devid Kristal internet kommunikatsiyasida tilning iqtisodiylik tamoyili muhim rol o'ynashini ta'kidlab, foydalanuvchilar tezkor muloqot qilish maqsadida so'zlarni qisqartirish yoki yangi qisqa shakllarni yaratishga intilishlarini qayd etadi⁷. Bunday jarayon natijasida internet muhitida qisqartmalar, akronimlar va turli abbreviaturalarning keng qo'llanilishi kuzatiladi.

Internet tilida qisqartmalar keng qo'llaniladigan leksik vositalardan biri hisoblanadi. Qisqartmalar ko'pincha so'zlarning bosh bo'g'inlarini birlashtirish yoki ayrim bo'g'inlarni tushirib qoldirish orqali hosil qilinadi. Masalan, ingliz tilidagi "LOL" (laughing out loud), "BRB" (be right back) kabi birliklar internet kommunikatsiyasida keng tarqalgan bo'lib, ular qisqa va tezkor muloqotni ta'minlashga xizmat qiladi. Tilshunos Naomi Baronning fikricha, bunday qisqartmalar kompyuter vositasida amalga oshiriladigan kommunikatsiya jarayonida vaqtni tejash va yozma nutqni og'zaki nutqqa yaqinlashtirish vazifasini bajaradi⁸.

Shuningdek, internet tilida mavjud so'zlarga yangi semantik ma'no yuklash jarayoni ham keng uchraydi. Bu hodisa tilshunoslikda semantik kengayish yoki semantik transformatsiya deb ataladi. Internet muhitida ayrim so'zlar yangi kommunikativ kontekstda qo'llanilib, yangi ma'nolarni anglatadi. Masalan, ingliz tilidagi "friend" so'zi ijtimoiy tarmoqlarda yangi ma'noda – ya'ni ijtimoiy tarmoqdagi aloqa yoki kontakt sifatida ishlatiladi. Suzan Herring internet kommunikatsiyasini o'rganar ekan, bunday semantik o'zgarishlar onlayn muloqot jarayonida yangi kommunikativ ehtiyojlar bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydi⁹.

⁵ Kim Jin, *Internet Communication Language Linguistic Characteristics*, 2015, 7-8-betlar

⁶ Kim Jin, *Internet Communication Language Linguistic Characteristics*, 2015, 30-32-betlar

⁷ Crystal D., *Language and the Internet*, 2006, 87-bet

⁸ Baron N., *Always On: Language in an Online and Mobile World*, 2008, 36-bet

⁹ Herring S., *Computer-Mediated Communication*, 2001, 615-bet

Internet kommunikatsiyasida yangi soʻz yasash jarayoni ham faol kuzatiladi. Internet foydalanuvchilari til birliklarini erkin kombinatsiya qilish, yangi affiksalar qoʻllash yoki turli tillardan elementlar olish orqali yangi soʻzlar yaratadilar. Bu jarayon tilning dinamik rivojlanishini koʻrsatadi va zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda internet tilining muhim xususiyatlaridan biri sifatida qaraladi.

Shu tariqa, internet kommunikatsiyasi jarayonida yuzaga kelayotgan yangi leksik birliklar til tizimining tabiiy rivojlanish jarayonini aks ettiradi. Qisqartmalar, semantik kengayish va yangi soʻz yasash jarayonlari internet tilining muhim lingvistik xususiyatlari boʻlib, ular zamonaviy kommunikativ muhitda tilning iqtisodiylik, tezkorlik va ekspressivlik kabi funksiyalarini taʼminlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, internet muhitida yangi slang birliklar va jargon soʻzlar ham paydo boʻladi. Bu birliklar koʻpincha muayyan foydalanuvchi guruhlarida qoʻllanadi va ularning ichki kommunikatsiyasini ifodalaydi.

Internet kommunikatsiyasida grafika vositalari muhim kommunikativ funksiyani bajaradi. Virtual muloqot jarayonida foydalanuvchilar oʻz his-tuygʻularini, kayfiyatini yoki munosabatini ifodalash uchun turli grafika elementlari – emotikonlar, emoji belgilar, maxsus grafik tasvirlar va turli tipografik belgilar kombinatsiyasidan foydalanadilar. Bunday vositalar internet muloqotida matn orqali ifodalash qiyin boʻlgan emotsional holatlarni yetkazishga xizmat qiladi. Tilshunos Devid Kristalning taʼkidlashicha, internet kommunikatsiyasida grafika vositalari yozma nutqni ogʻzaki nutqqa yaqinlashtiruvchi muhim kommunikativ mexanizm sifatida namoyon boʻladi¹⁰.

Emotikonlar internet tilining eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Ular turli belgilar va harflarning kombinatsiyasi orqali inson yuzining ifodasi yoki hissiy holatini tasvirlash imkonini beradi. Masalan, “:-)”, “:-(”, “;-)” kabi belgilar yordamida quvonch, xafa boʻlish yoki kinoya kabi hissiy holatlar ifodalanadi. Susan Herring internet kommunikatsiyasini oʻrganar ekan, emotikonlar yozma muloqotda paralingvistik vositalar vazifasini bajarishini va ular matn orqali yetkazilmaydigan emotsional maʼlumotni uzatishga xizmat qilishini taʼkidlaydi¹¹.

Shuningdek, internet tilining yana bir muhim xususiyati – grafika va ortografik normalarning nisbatan erkin qoʻllanilishidir. Internet muhitida muloqot jarayoni tezkorlikka asoslangan boʻlgani sababli foydalanuvchilar koʻpincha imlo qoidalariga toʻliq rioya qilmasdan yozadilar. Bu jarayon soʻzlarni talaffuzga mos yozish, boʻgʻinlarni qisqartirish, ortiqcha harflarni tushirib qoldirish yoki tinish belgilaridan erkin foydalanish shaklida namoyon boʻladi. Naomi Baronning taʼkidlashicha, kompyuter vositasida amalga oshiriladigan kommunikatsiya jarayonida ortografik meʼyorlarning erkinlashuvi yozma nutqning ogʻzaki nutq xususiyatlariga yaqinlashishi bilan bogʻliq¹².

Internet tilida grafika vositalarining keng qoʻllanilishi, shuningdek, tilning multimodal kommunikatsiya shakliga aylanishiga ham olib kelmoqda. Yaʼni internet muloqotida maʼno faqat matn orqali emas, balki turli grafika elementlari, belgilar va tasvirlar orqali

¹⁰ Crystal D., *Language and the Internet*, 2006, 37-bet

¹¹ Herring S., *Computer-Mediated Communication*, 2001, 618-bet

¹² Baron N., *Always On: Language in an Online and Mobile World*, 2008, 59-bet

ham ifodalanadi. Bu jarayon zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda internet kommunikatsiyasining muhim xususiyatlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shu tariqa, emotikonlar, grafik belgilar va ortografik erkinlik internet tilining muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, ular virtual muloqot jarayonida hissiy ekspressivlikni kuchaytirish, kommunikatsiyani tezlashtirish va foydalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro tushunishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda internet kommunikatsiyasi zamonaviy jamiyatda yangi lingvistik hodisalarni yuzaga keltirdi. Internet tilida qisqartmalar, yangi leksik birliklar, emotikonlar va normativ qoidalardan chetga chiqish kabi hodisalar keng tarqalgan. Bu jarayon tilning rivojlanishiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bir tomondan, internet tili kommunikatsiyani tezlashtiradi va yangi ifoda imkoniyatlarini yaratadi. Ikkinchi tomondan esa, normativ til qoidalarining buzilishi va slang birliklarning keng tarqalishi til madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli internet tilining lingvistik xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish va uning til madaniyatiga ta'sirini tahlil qilish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baron N., Always On: Language in an Online and Mobile World, 2008, 36-bet
2. Baron N., Always On: Language in an Online and Mobile World, 2008, 59-bet
3. Castells M., The Rise of the Network Society, 2010, 77-bet
4. Crystal D., Language and the Internet, 2006, 24-bet
5. Crystal D., Language and the Internet, 2006, 37-bet
6. Crystal D., Language and the Internet, 2006, 87-bet
7. Herring S., Computer-Mediated Communication, 2001, 612-bet
8. Herring S., Computer-Mediated Communication, 2001, 615-bet
9. Herring S., Computer-Mediated Communication, 2001, 618-bet
10. Kim Jin, Internet Communication Language Linguistic Characteristics, 2015, 1-bet
11. Kim Jin, Internet Communication Language Linguistic Characteristics, 2015, 7-8-betlar
12. Kim Jin, Internet Communication Language Linguistic Characteristics, 2015, 30-32-betlar